MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

AKRAMOVA ADOLATXON KODIRXONOVNA

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI TAYM MENEJMENT USULLARINI INTEGRASIYALASH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 372.1

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Akramova Adolatxon Kodirxonovna
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirish..... 3

Акрамова Адолатхон Кодирхоновна
Совершенствование управленческой деятельности директоров дошкольных образовательных организаций на основе интеграции методов тайм-менеджмента..... 23

Akramova Adolatxon Kodirxonovna
Improving the managerial activities of preschool education institution directors through the integration of time management methods..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published word..... 47

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PHD. 01/2025.27.12.Ped.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

AKRAMOVA ADOLATXON KODIRXONOVNA

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI TAYM MENEJMENT USULLARINI INTEGRASIYALASH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestasiya Komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12477 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.mdomoi.uz)da hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Raxmankulova Nargiz Xadjiakbarovna** Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurova Sanobar Yo‘ldoshevna** Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Kalmuratov Timur Nagmetullayevich Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (Phd) dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat pedagogika instituti**

Dissertasiya himoyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “12” 09 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘shasi, 64 -uy. Tel.: (+998 71) 150-01-27; faks: (+998 71) 150-01-27; Ye-xat: mtm-malaka.oshirish@yexat.uz).

Dissertatiya bilan Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (100-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 64 -uy. Tel.: (+998 71) 150-01-27; faks: (+998 71) 150-01-27; Ye-xat: mtm-malaka.oshirish@yexat.uz.

Dissertasiya avtoreferati 2026-yil “28” 08 kuni tarqatildi.
(2026-yil “28” 08 dagi 21 - raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Sh.Abdullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

Sh.M.Otaqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

K.Dj.Riskulova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi globallashuv va raqamli transformasiya sharoitida boshqaruv faoliyatining vaqt resurslaridan samarali foydalanish muammosi ustuvor amaliy masalaga aylangan. Jahon tajribasida taym-menejment masalasi inson kapitalini rivojlantirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va tashkilotlar faoliyatini optimallashtirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. "Xalqaro tashkilotlar va global loyihalar, jumladan, Harvard Graduate School of Education, OECD Skills Project va D.Allen Foundation doirasida ishlab chiqilgan taym-menejment texnologiyalari rahbarlar faoliyatida vazifalarni ustuvorlashtirish, ish jarayonlarini rejalashtirish, vaqt yo'qotishlarini kamaytirish va stressni boshqarishga xizmat qilmoqda"[1]. Ushbu yondashuvlar boshqaruv faoliyatida vaqtni faqat tashkiliy resurs sifatida emas, balki strategik pedagogik resurs sifatida ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, xususan, Germaniya, AQSh, Yaponiya hamda Skandinaviya kabi davlatlarida taym-menejment rahbarning kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu mamlakatlarda turli darajadagi rahbarlarning vaqt resurslaridan oqilona foydalanish, strategik rejalashtirish, ustuvor vazifalarni belgilash va mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar keng qo'llaniladi. Jumladan, Germaniyada taym-menejment bo'yicha ixtisoslashgan ta'lim va malaka oshirish dasturlari, AQSh va Yaponiyada esa menejment maktablari hamda professional rivojlanish kurslari orqali rahbarlarning vaqtni samarali boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar davrida direktorlarining boshqaruv faoliyatiga zamonaviy menejment texnologiyalarini, jumladan, taym-menejment usullarini integrasiyalash alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-son Farmonida "maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayoniga innovaцyalarni, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari zimmasiga ta'lim sifatini ta'minlash, pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etish"[2] kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi rahbarlardan vaqt resurslarini oqilona rejalashtirish, ustuvorliklarni aniq belgilash, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish hamda raqamli boshqaruv sharoitida tezkor va asosli qarorlar qabul qilishni kabi talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym-menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot olib borish zamonaviy pedagogik boshqaruv nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb hamda zarur hisoblanadi.

---

[1] OECD. An OECD learning framework 2030 // The future of education and labor. – Cham: Springer International Publishing, 2019. – P. 23-35.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-son "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktiyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-son “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida hamda 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida ko‘rsatilgan ustuvor yo‘nalishlarni hayotga tatbiq etish jarayonida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda mazkur dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusining O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot quyidagi ustuvor yo‘nalish doirasida amalga oshirilgan: I. “Axborot jamiyatini va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy jihatlardan rivojlantirish, innovaцon g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish”.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish hamda boshqarish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston olimlaridan A.V.Shin, N.Sh.Abdullayeva, Sh.Sh.Mirziyoyeva, T.N.Kalmuratov, G.N.Nigmatova, Sh.N.Qosimova, A.Z.G‘aniyeva, H.K.Bo‘riyev, N.A.Miryusupova, I.I.To‘ychiyeva, G.M.Nazirova, M.R.Isxakovalarning ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va sifatni oshirish masalalari tadqiq etilgan.

Shuningdek, ta’lim tizimini, xususan, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha MDH olimlaridan G.A.Arxangelskiy, I.V.Timofeyeva, G.F.Ksendzova, Ye.N.Komlev, G.Kuns, N.V.Kuxarev, B.S.Lazarevlar tadqiqotlar olib borgan.

Xorijiy olimlardan L.Darrou, Thian Vui Shau, F.Chirillo, D.Allenlarning tadqiqotlarida maktabgacha va maktab ta’lim sohalarini rivojlantirish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish hamda innovasion metodlarni qo‘llash masalalari o‘z ifodasini topgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym-menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirish masalasi alohida o‘rganilmagan. Ilmiy tahlillarga ko‘ra, time-menejment asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv samaradorligini oshiruvchi mexanizmlar to‘liq tadqiq etilmagan, shuningdek, boshqaruv samaradorligini oshirishda taym-menejmentning roli va ahamiyati dolzarb muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli mazkur tadqiqot mavzusi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym-

menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirish” deb belgilanishiga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ilmiy tadqiqotlar rejasining “Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning konseptual-metodologik masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash jarayonida direktorning boshqaruv funksiyalarini aniqlash;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasini ishlab chiqish;

taym-menejment asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy modelini takomillashtirish;

maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym-menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyati jarayonlari belgilanib, tajriba sinov ishlarida jami 387 nafar respondentlar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatiga taym-menejment usullarini integrasiya qilishning tashkiliy pedagogik shart sharoitlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik kuzatuv, tanqidiy-qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, integrativ tahlil, audio-vizual tahlil, faoliyat mahsullarini o‘rganish, modellashtirish, so‘rovnoma, intervyu, diagnostik test, eksperimental tajriba-sinov, miqdoriy tahlil, matematik statistik tahlil, natijalarni umumlashtirish usullaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejmentni integrasiyalash jarayoni natijaga yo‘naltirilgan ABC-analiz yordamida direktor vazifalarini strategik, taktik va operasion ahamiyatiga ko‘ra guruhlash orqali vaqt resurslarini maqsadli allokasiya qilish asosida aniqlashtirilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasi direktor vazifalarini amalga oshirishda ish va tanaffus bloklariga ajratish hamda topshiriqni rasmiylashtirish, tashkil etish va monitoring jarayonlarini tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan;

taym-menejment asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmi “Eyzenxauer” matritsasi va raqamli ish yuritish tizimi orqali vazifalarning ahamiyatliligi hamda ustuvorlik darajasiga ko‘ra boshqaruv jarayonlarining barqarorligini ta’minlash asosida rivojlantirilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish modeli konseptual, prognostik, operasion-texnologik va diagnostik bloklar asosida konstruksiyalashga ko‘ra direktor faoliyatining kognitiv-strategik, amaliy-monitoring va adaptiv jihatlarini kompleks integrasiyalash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari hamda taym-menejment texnikalari va vositalari asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan, tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yechimlar ishlab chiqilgan;

maktabgacha ta’lim boshqaruvi sharoitiga moslashtirilgan “taym-menejment” pedagogik texnologiyasi asosida o‘quv-metodik ta’minot majmuasi ishlab chiqildi. Majmua quyidagilarni o‘z ichiga oladi: “mtt direktori ish faoliyatida taym-menejment” malaka oshirish maxsus kursi uchun o‘quv qo‘llanma va “taym-menejment” moduli asosida taym-menejment o‘quv mavzusi bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

taym-menejment tamoyillariga asoslangan maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish modeli ishlab chiqildi va amaliyotda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilgan;

taym-menejment tamoyillariga asoslangan holda maktabgacha ta’limda boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari (yuqori, o‘rtacha, past) aniqlashtirildi hamda baholash uchun indikatorlar va vositalar, jumladan, so‘rovnoma, suhbat va test sinovlari loyihalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, OAK tavsiya etgan ilmiy nasrlar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, keltirilgan tahlillar hamda tajriba-sinov samaradorligi matematik statistika metodlari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha ta’lim sohasidagi boshqaruvning takomillashuviga xizmat qiluvchi yangi nazariy yondashuv, model, taklif va tavsiyalar zamonaviy hamda xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilganligi va qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘rganilgan muammo va eksperimental-tajribaviy xulosalar ushbu yo‘nalishdagi kelgusi ilmiy tadqiqotlar uchun qo‘shimcha manba sifatida xizmat qilishi, shuningdek, maktabgacha ta’lim sohasidagi boshqaruvni samarali amalga oshirish, rahbarlarning menejmentning samarali usullarini o‘rganish imkonini beradigan tavsiya va takliflarni qo‘llashda natijadorlikka erishish, sohaga doir o‘quv dasturlari, qo‘llanma va o‘quv materiallari mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirishga oid ilmiy natijalar asosida:

maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejmentni integrasiyalash jarayoni natijaga yo‘naltirilgan ABC-analiz yordamida direktor vazifalarini strategik, taktik va operasion ahamiyatiga ko‘ra guruhlash orqali vaqt resurslarini maqsadli allokasiya qilish asosida ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalardan MTT direktorlari va pedagog kadrlari uchun “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori ish faoliyatida taym menejment” nomli metodik qo‘llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha ta’lim agentligining 2024-yil 11-iyuldagi 03-03/1-615-sonli ma’lumotnomasi). Natijada taym-menejment maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining shaxsiy va kasbiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasi direktor vazifalarini ish va tanaffus bloklariga ajratish hamda topshiriqni rasmiylashtirish, tashkil etish, nazorat va monitoring bosqichlarida “Pomodoro” texnikalarini bosqichma-bosqich qo‘llash orqali ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalardan “Taym menejment” o‘quv moduli asosida uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilgan (Maktabgacha ta’lim agentligining 2024-yil 11-iyuldagi 03-03/1-615-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yuqori samarali vaqt boshqaruvi orqali xodimlar ko‘proq vazifalarni tezroq va sifatli bajarishga, shu bilan birga, stress darajasini kamaytirishga erishilgan;

taym-menejment asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmi “Eyzenxauer” matritsasi va raqamli ish yuritish tizimi orqali vazifalarni ustuvorlik hamda shoshilinchlik darajasiga ko‘ra ajratib tasniflash asosida MTT direktorlarining boshqaruv samaradorligini takomillashtirish darajalarini baholash parametrlari va indikatorlari ishlab chiqilgan (Maktabgacha ta’lim agentligining 2024-yil 11-iyuldagi 03-03/1-615-sonli ma’lumotnomasi). Natijada taym-menejmentni samarali qo‘llash usullari ishlab chiqilgan va ularni tashkilotlar darajasida tatbiq etishga yordam bergan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish modeli konseptual, prognostik, operasion-texnologik va diagnostik bloklar asosida konstruksiyalash orqali direktor faoliyatining kognitiv-strategik, amaliy-monitoring va adaptiv jihatlarini kompleks tizimga yagona tartibda birlashtirish orqali ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalardan “Ta’lim sifati monitoringi” o‘quv qo‘llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Maktabgacha ta’lim agentligining 2024-yil 11-iyuldagi 03-03/1-615-sonli ma’lumotnomasi) Natijada taym-menejmentni samarali qo‘llash usullari ishlab chiqilgan va ularni tashkilotlar darajasida tatbiq etishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) maqola chop etilgan. Ilmiy-amaliy anjumanlarda 4 ta tezis (2 ta respublika va 2 ta xalqaro konferensiyalarda) e’lon qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslab berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, shuningdek, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniq ko‘rsatilgan. Tadqiqot mavzusi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarni amaliyotga joriy etish imkoniyati, chop etilgan ilmiy maqolalar ro‘yxati, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan kirish qismi tadqiqotning umumiy mazmuni, dolzarbligi va ilmiy asoslanganligini aniq ifodalab beradi.

Dissertasiyaning **“Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida tahlili, boshqaruv funksiyalarini taym-menejment yondashuvlari asosida aniqlashning nazariy asoslari hamda direktorlarining boshqaruv faoliyatida vaqtni rejalashtirish va taym-menejment usullarini qo‘llashning amaliy holati tahlili ochib berilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integraцyalash zamonaviy ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi. Murakkab ta’lim muhitida direktorlar pedagogik jarayonlarni boshqarish, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatish kabi ko‘p qirrali vazifalarni bajarishga majburdir. Shu bilan birga, vaqtni rejalashtirish va boshqarish ko‘nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligi rahbarlarning ish samaradorligi hamda ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, pedagoglar bilan o‘zaro munosabatlarda nizolarga sabab bo‘ladi.

Menejment tushunchasi boshqarish faoliyati va fanini o‘z ichiga oladi hamda uning asosiy maqsadi zamonaviy boshqaruv usullari va rahbarlik ko‘nikmalarini tizimli o‘rganishdan iboratdir. Boshqaruv jarayoni esa tanlov qilish, qaror qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, vaqtni boshqarish – rahbarning asosiy kasbiy kompetensiyalaridan biri bo‘lib, ish jarayonini rejalashtirish, ustuvorlikni belgilash, resurslarni samarali taqsimlash va faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Taym-menejmentning amaliy jihatlari taqvimdan foydalanish, ustuvorlikni belgilash, maqsadlarni aniq belgilash, aloqa va rejalashtirish, rejadan tashqari vazifalarni nazorat qilish, hissiyotlarni boshqarish, muammoni hal etish hamda eslatmalarni tashkil etish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy boshqaruvda vaqtni samarali boshqarish masalalari bir qator olim va amaliyotchilar tomonidan tadqiq etilgan. G.Arxangelskiy ta’lim tizimiga moslashtirilgan oqilona rejalashtirish va o‘zini o‘zi boshqarish tizimini ishlab chiqqan bo‘lsa, S.Kovi vaqtni boshqarishda qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv va ustuvorliklarni belgilashga alohida e’tibor qaratgan. P.Druker va X.Mintsberg rahbarning funksiyalarini “vaqt investorlari” sifatida ajratib ko‘rsatib, strategik va operativ rejalashtirish jarayonlarini tizimli yondashuv asosida tushuntirgan. D.Allen

esa GTD (Getting Things Done) metodikasini taklif etib, vazifalarni tuzilmaga solish va ularni bosqichma-bosqich bajarish orqali aqliy resurslarni samarali boshqarish imkoniyatini yaratgan.

Shuningdek, amaliyotda Pomodoro usuli, SMART texnologiyasi, Eyzenxauer matritsasi, Parkinson qoidasi, Illich qonuni, ABC tamoyili kabi individual taym-menejment vositalari rahbarlarning ish faoliyatini rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash va resurslardan optimal foydalanish mexanizmlarini ta’minlashda keng qo‘llaniladi. Bu yondashuvlar rahbarning strategik qaror qabul qilish va operativ boshqaruv jarayonlarida metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Biz tomonidan amalga oshirilgan qiyosiy tahlillar natijasida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining kasbiy kompetensiyasi hamda boshqaruv kompetensiyasi bir-biridan farq qiluvchi, biroq o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar ekani aniqlangan. Global Education Futures va WorldSkills Russia hisobotlarida yangi tipdagi mutaxassis “yumshoq” (soft skills) va “qattiq” (hard skills) kompetensiyalarga ega bo‘lishi, jumladan, vaqtni boshqarish (time management), o‘zini o‘zi tashkil etish, muloqot qilish va hamkorlikda ishlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta’kidlanadi. Shu munosabat bilan MTT direktorining boshqaruv kompetensiyasi tarkibida taym-menejment alohida ahamiyat kasb etadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. MTT direktorining boshqaruv kompetensiyasi tarkibi.

Vaqt byudjeti – aholining yoki muayyan ijtimoiy guruhlarning vaqt resursidan foydalanish tarkibini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar majmuasi bo‘lib, u ish va ishdan tashqari vaqtga ajratiladi. Vaqt byudjeti bo‘yicha tadqiqotlar inson faoliyati, turmush tarzi va dam olishning oqilona tashkil etilishi, shuningdek, mehnat samaradorligini oshirish omillarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar XX asr boshlaridan boshlab jahon miqyosida keng rivojlangan.

Vaqt miqdori – muayyan tashkiliy-texnologik sharoitda malakali ishchi tomonidan belgilangan hajmdagi ishni bajarish uchun zarur bo‘lgan vaqt miqdorini ifodalaydi. Vaqt normasining ilmiy asosda ishlab chiqilishi mehnatni samarali tashkil etishning muhim shartidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejmentni integrasiyalash texnologiyasi rahbarning vaqt resurslarini strategik va operativ darajada boshqarish orqali tashkilot faoliyatini samarali hamda barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan tizimli yondashuv hisoblanadi. Ushbu texnologiya boshqaruv samaradorligini oshirish, ish yukini optimallashtirish va pedagogik jarayon sifatini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy elementlar hamda jarayonlardan tashkil topgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishda taym-menejmentning asosiy tarkibiy qismlari direktorning boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining boshqaruv faoliyatida taym-menejmentning asosiy tarkibiy qismlari

Taym-menejment elementi	Mazmuni va ahamiyati
Vazifalarni rejalashtirish va ustuvorlikni aniqlash	Direktorning o‘z faoliyatini rejalashtirish va ko‘plab dolzarb vazifalar hamda loyihalar orasida ustuvorliklarni belgilash qobiliyati boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy elementi hisoblanadi. Samarali rejalashtirish ish yukining ortiqcha bo‘lishining oldini oladi va xodimlarning stress darajasini kamaytiradi.
Vakolatni uzatish	Rahbarning vakolatlarini uzatishi ish jarayonlarini optimallashtirish va yuklarni taqsimlashda muhim vosita hisoblanadi. Bu direktorga boshqaruvning strategik muhim jihatlariga e’tibor qaratish imkonini beradi, operasion vazifalar esa bo‘ysunuvchilar tomonidan bajariladi.
Monitoring va nazorat	Topshirilgan vazifalar va loyihalarning bajarilishini muntazam nazorat qilish ularning belgilangan standartlar hamda muddatlarga muvofiq bajarilishini ta’minlaydi, bu esa tashkilotning umumiy samaradorligi va sifatini oshiradi.
Texnologik vositalardan foydalanish	Loyiha boshqarish dasturlari va elektron kalendarlar kabi zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanish direktorlar uchun vaqt hamda resurslarni samarali boshqarishning qudratli vositalarini taqdim etadi.

Dissertasiyaning **“Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasi, mexanizmi va modeli”** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasi, tarkibiy tuzilmasi, direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym-menejment usullarini integrasiyalash takomillashtirilgan modeli hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va diagnostik vositalari ochib berilgan.

Tadqiqot doirasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida vaqtni samarali boshqarish va ish jarayonlarini optimallashtirish maqsadida taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasi ishlab chiqildi (2-rasm)



2-rasm. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasi.

Taym-menejment usullarini integrasiyalash texnologiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida vaqt resurslarini samarali taqsimlash, ish jarayonlarini tizimli rejalashtirish va optimallashtirish hamda boshqaruv jarayonining uzluksizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan zamonaviy yondashuvdir. Texnologiya maqsadlarni aniqlash va prioritetlash, ish jarayonlarini vaqt bloklariga ajratish, monitoring va adaptasiya, delegasiya va avtomatlashtirish kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqilgan.

Asosiy komponentlari: Strategik alokasiya – vazifalarning ustuvorligini belgilash va vaqt resurslarini maqsadga muvofiq taqsimlash; Modellashtirish – ish jarayonlarini vaqt parametrlariga muvofiq oldindan rejalashtirish; Monitoring va adaptasiya – amalga oshirilgan ishlar bilan rejalashtirilgan vazifalarni solishtirish

hamda zarur o‘zgarishlarni kiritish; Effektiv audit – jarayon samaradorligini baholash va doimiy takomillashtirish.

Texnologiyaning amaliy joriy etilishi bir necha bosqichda amalga oshiriladi: vazifalarni tahlil qilish va prioritetlash, ish jarayonini vaqt bloklariga ajratish, boshqaruv vositalarini tanlash (masalan, “Pomodoro” texnikasi, “ABC-analiz”, elektron jadval va monitoring tizimlari), real vaqt rejimida nazorat o‘rnatish va jarayonni doimiy optimizasiya qilish.

Kutilgan natijalari: boshqaruv jarayonining tezligi va samaradorligini oshirish, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi ish muvofiqligini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, shuningdek, direktorlarning strategik qaror qabul qilish va resurslarni optimal taqsimlash qobiliyatini mustahkamlash.

Texnologiyaning amaliy joriy etilishi bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi, avvalo, vazifalarni tahlil qilish va ularni ustuvorlik tartibida prioritetlash, keyin ish jarayonini vaqt bloklariga ajratish va boshqaruv vositalarini tanlash (“Pomodoro” texnikasi, “ABC-analiz”, elektron jadval va monitoring tizimlari).

Shundan so‘ng, real vaqt rejimida nazorat o‘rnatiladi va jarayon doimiy ravishda optimizasiya qilinadi. Yakuniy bosqich esa natijalarni tahlil qilish va zarurat bo‘lganda texnologiyani takomillashtirishdan iborat bo‘lib, bu direktorning boshqaruv salohiyatini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Mazkur texnologiya maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini optimallashtirish “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym-menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirish modeli” orqali amalga oshiriladi (3-rasm). Ushbu model texnologiyaning tizimli xarakterini ta’kidlaydi: u boshqaruv jarayonini bloklarga bo‘lib, har bir bosqichning natijasi keyingi bosqichga kirish ma’lumotlari sifatida xizmat qiladi.

Modelimiz 4 blokdan iborat bo‘lib, 1-blok maqsadli blok bo‘lib, bunda biz ijtimoiy ehtiyojni aniqladik va shundan so‘ng, taym menejment asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat deb maqsad belgilab oldik.

Modelning 2-bloki mazmunli blok bo‘lib unda biz taym-menejmentining asosiy tamoyillari keltirildi. Biz ushbu tamoyillarni 2.1-paragrafida to‘liq to‘xtalib o‘tdik. Taym menejmentidan samarali foydalanishni rivojlantiruvchi omillarni aniqladik va ishlab chiqdik.

Modelning 3-blokini jarayonli blok deb nomladik, bunda biz Taym menejment asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirish jarayonini qamrab oldik. Bunda biz MTT direktorlarida vaqtdan samarali foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish jarayonini seminar treninglar va maxsus kurs dasturi orqali takomillashtirdik.



3- rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatini taym-menejment usullarini integrasiyalash asosida takomillashtirish modeli.

MTT direktorining vaqtdan samarali foydalanish koeffisentini oshirdik. Modelimizning 4-blokida olib borilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish,

so‘rovnomalar, test kabi baholash metodlaridan foydalanib, motivasion, kognitiv, refleksiv baholash mezonlari orqali olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berdik. Natijada esa maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda vaqtdan samarali va oqilona foydalana oladigan direktor portreti paydo bo‘ldi. Taym-menejment bo‘yicha o‘qitish usullari va yondashuvlarini ko‘rib chiqamiz.

1. Interfaol seminarlar va mahorat darslari: amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, unda ishtirokchilar nafaqat taym-menejmentning yangi usullari haqida bilib olishlari, balki ularni darhol amalda sinab ko‘rishlari mumkin.

2. Onlayn kurslar va vebinarlar: raqamli o‘quv platformalaridan foydalanish ishtirokchilarga materialni o‘rganishga moslashuvchan yondashish hamda o‘rganishni ish bilan birlashtirish imkonini beradi.

3. Murabbiylik va mentorlik: tajribali murabbiy yoki murabbiy bilan individual ishlash direktorlarga taym-menejment tamoyillarini chuqurroq tushunishga hamda ularni o‘ziga xos ish sharoitlariga moslashtirishga yordam beradi.

4. Ish bosqichlari va misollarni tahlil qilish: taym-menejment ishda sezilarli yaxshilanishlarga olib kelgan haqiqiy holatlarni o‘rganish ilhomlantiradi hamda qimmatli saboqlarni taqdim etadi.

Integrasiyalash tamoyillar, omillar va boshqaruv funksiyalarini birlashtirish orqali direktorlarning time-menejmentidan samarali foydalanishini ta’minlaydi hamda boshqaruv samaradorligini oshiradi. Shu yondashuv amaliyot, monitoring va baholash jarayonlarida uyg‘unlik yaratib, ta’lim muassasasining maqsadlariga erishishni tezlashtiradi. Natijada, direktorlar o‘z boshqaruv faoliyatini tizimli, samarali va innovasion usullar orqali amalga oshira oladi.

Taym-menejment bo‘yicha muntazam ta’lim dasturlarini joriy etish maktabgacha ta’lim tashkilotlarining boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga strategik sarmoyadir. Bu nafaqat boshqaruv samaradorligini bevosita oshirishga yordam beradi, balki ta’lim tashkilotlarini ta’lim sohasidagi o‘zgaruvchan sharoitlarga uzoq muddatli rivojlantirish va moslashtirish uchun asos yaratadi.

Taym-menejmentning ushbu mexanizmlarini amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlariga nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirishga, balki qulay va samarali ta’lim makonini yaratishga hissa qo‘shib, ishning umumiy muhitini optimallashtirishga imkon beradi.

Taym-menejment orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik tajriba ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodologiyasiga qaratilgan. Ushbu bobda metodologiyani ishlab chiqish, uni amalga oshirish va natijalarni tahlil qilish tasvirlangan, bu taklif qilingan boshqaruv yondashuvlarining amaliy qo‘llanilishi va samaradorligini baholashga imkon beradi. Asosiy e’tibor metodologiyani nazariy asoslashga ham, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarishning real sharoitida qo‘llash natijalari bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni amaliy tahlil qilishga ham qaratilgan.

Ishlab chiqilgan model maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining boshqaruv faoliyatida time-menejmentni samarali qo‘llashning ilmiy-metodologik asoslarini yaratadi. Model integrasiyalash yondashuvi orqali boshqaruv tamoyillari, omillar va monitoring vositalarini uyg‘unlashtirib, maqsadlarni aniqlash va prioritetlash, rejalashtirish, monitoring va optimizasiya, delegasiya hamda avtomatlashtirishni birlashtiradi, bu esa direktorlarning boshqaruv jarayonini tizimli, izchil va samarali tashkil etish imkonini beradi. Texnologik bosqichlar –

strategik alokasiya, modellashtirish, monitoring va adaptasiya hamda effektiv audit – direktorlar uchun vaqt resurslarini optimal taqsimlash, ish jarayonini bloklarga ajratish, boshqaruv vositalarini tanlash, real vaqt rejimida nazorat va natijalarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Model joriy etilganda boshqaruv tezligi va samaradorligi oshadi, xodimlar bilan ish muvofiqligi yaxshilanadi, ta'lim jarayonining sifat ko‘rsatkichlari ko‘tariladi. Shu bilan birga, u pedagogik tadqiqotlarda va amaliyotda ilmiy asos sifatida qo‘llanilishi, boshqa boshqaruv va pedagogik amaliyotlar bilan integrasiya qilinishi, individual yondashuvlar ishlab chiqilishi hamda doimiy takomillashtirish va monitoring orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

